

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-son)



IJTIMOIIY FANLAR
SOCIAL STUDIES

УДК:94:572.9:745(575.12)(18/19)(043.3)

ORCID: 0009-0006-0470-5659

FARG'ONA VODIYSINING O'RTA ASRLAR DAVRI METALL BUYUMLAR TAYYORLASH HUNARMANDCHILIGI TARIXIDAN

ИЗ ИСТОРИИ ПРОИЗВОДСТВА МЕТАЛЛИЧЕСКИХ ИЗДЕЛИЯ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ В СРЕДНЫХ ВЕКАХ

FROM THE HISTORY OF THE TRAINING OF METAL PRODUCTS MIDDLE AGES OF THE FERGANA VALLEY

Esonov Ziyodbek Yuldashevich

*Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika instituti Tarix kafedrasasi dotsenti, tarix
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

ziyodjon.e72@gmail.com + 998 91 154 36 06

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'rta asrlar davrida Farg'ona vodiysida metall buyumlar tayyorlash hunarmandchiligi taraqqiyoti tarixi tahlil etilgan. Asosiy e'tibor bu davr mintaqada metall buyumlar tayyorlash hunarmandchiligi rivojining omillari, asosiy markazlarning o'ziga xos taraqqiyoti sabablari, mavzuga oid ma'lumotlar tadqiqi masalalariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar. Farg'ona vodiysi, o'rta asrlar, tog'-konchiligi, "Axsikent maktabi", temirchilik markazi, metall buyumlar, tig'li qurollar, Axsikent metall ustaxonalari, po'lat olish texnologiyasi, sopol qoliplar, metall sirtini qoraytirish, "Farg'ona qilichi".

Аннотация. В этой статье представлен анализ истории развития ремесло металлических продуктов в Ферганской долины в средние века. Основное внимание уделяется факторы развития производства металлических изделий в Ферганской долины, причины развития основных центров производства, исследования сведений к этому тему.

Ключевые слова. Ферганской долины, средние века, добыча горных руд, «Школа Ахсикента», центр кузнечества, металлические изделия, острые оружия, металлические мастерство Ахсикента, технология производства стала, керамические тигели, чернение металлических поверхностей, «Сабля Ферганы».

Annotation. This article feature analysis of the history of craftsmanship for the manufacture of metal products in the Fergana Valley in the Middle Ages. The main focus is on

factors in the development of craftsmanship for the training of metal products in the region, the reasons for the specific development of key centers, the issues of information research issues.

Key words. Fergana Valley, medieval, mining, "School of Axsicent", metal products center, metal products, peeled weapons, the method of Axsicent metal workshops, steeling technology, ceramic templates, calving the surface of the metal, "Fergana sword".

KIRISH.

Arxeologik va tarixiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Farg‘ona vodiysida ilk va rivojlangan o‘rta asrlarda dehqonchilik, chorvachilik xo‘jalik mashg‘ulotlari qatorida hunarmandchilik tarmog‘i ham rivoj topgan edi. Buni 1957-1958 yillarda V.A. Bulatova tomonidan vodiya sharqidagi Quva shahridan topilgan metall buyumlar ham tasdiqlaydi [1;110-115-b].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Mintaqada hunarmandchilikni rivojlanishida qator omillar muhim rol o‘ynagan. Bunga tadqiqotchilar *birinchi omil* sifatida IX-X asrlardagi Somoniylar, IX-XII asrlardagi Qoraxoniylar, XIV-XV asrlar Temuriylar davrida mamlakatdagi siyosiy barqarorlik, iqtisodiy taraqqiyot, shaharlarni yuksalishi, savdo va hunarmandchilik sohalarini rivojlanishiga turki bergan degan mulohazani ilgari suradilar. Darhaqiqat, metallsozlik Farg‘ona vodiysida o‘rta asrlarda rivoj topganligini tarixiy manbalar, mavzuga oid tadqiqot natijalari tasdiqlaydi [2;26-b].

Farg‘ona vodiysida metallsozlik tarmoqlarini rivojlanishiga *ikkinchi omil*, bu mintaq va uni tevarak atrofida tog‘-kon sanoatini rivoj topishi edi deb ko‘rsatish mumkin. CHunonchi, X asrga oid “Hudud ul-olam” asarida Usturushona, Qurama-CHotqol tizmalaridagi tog‘ konlaridan temir, qo‘rg‘oshin, kumush, simob, mis, qalay, feruza, novshadil, Ibn Havqal bo‘lsa Mink va Marsmanda yaqinidagi konlardan ham shunday metall xom-ashyosi qazib olinganligini va bu xom-ashyodan Farg‘onaning temirchilik markazlarida mahsulot tayyorlanganligini ta’kidlab o‘tganlar [3;15;27-b]. Tog‘-konlarida metall xom-ashyosini qazib olish o‘rta asrlarning keyingi davrida ham davom etgan. Bunga temuriylar davridagi iqtisodiy yuksalish ijobiy ta’sir etgan. Jumladan, Z.M. Bobur ham o‘z asarida temuriylar davrida Farg‘ona vodiysidagi konlar va ulardagi ishlab chiqarish haqida qimmatli ma’lumotlar bergan.

O‘rta asrlarda Farg‘ona metallsozligini SHarqda tanilishiga *uchinchi omil*, mahalliy hunarmandlarni asrlar davomida yaratgan yuksak sifatli va badiiy qiymatga ega buyumlarni tayyorlash maktabini yaratishlari edi. Bunga o‘rta asrlarda juda qadrlangan po‘lat buyumlar yasashning “Axsikent maktabi” an’analari yaqqol misol bo‘ladi. Bunday ma’lumotlar ayniqsa IX-XII asr tarixiy manbalarida ko‘p uchraydi. Bunga Ibn Havqal, Istaxriy va Muqaddasiylar asarlaridagi Farg‘ona vodiysi metallsozligiga oid qaydlari dalil bo‘ladi. Ta’kidlash kerakki, o‘rganilayotgan davrda Farg‘ona vodiysidagi eng yirik metallsozlik markazi Axsikent shahri edi. Xususan, X asrga oid “Hudud ul-olam” asarida Axsikent shahri Farg‘ona vodiysining eng yirik temirchilik markazi ekanligi haqida ma’lumot berilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Hunarmandchilik rivojlanishi natijasida Axsikent va uni atrofida vodiylar shimoliy-sharqidagi alohida temirchilik markazi yuzaga kelgan. Jumladan, ushbu shaharni Farg‘ona mulkini poytaxti sifatida qaror topishi, mintaqaning eng mohir hunarmandlarini bu joyga jamlanishi, tabiiy xom-ashyo zahirasiining yaqinligi, eng asosiysi mahalliy hunarmandlarni temirchilikda yuksak mahoratga erishishlari “Axsikent maktabi”ni yuzaga keltirgan. To‘g‘ri mazkur davrda Farg‘ona vodiysida Axsikentdan tashqari Andijon, Marg‘ilon, O‘zgand, Xo‘jand, Koson, Bob, Rishton, Quva, Isfara, Konibodom kabi katta-kichik shaharlar bo‘lib, ularda turli darajada temirchilik hunarmandchiligi rivojlangan edi. Lekin mintaqaholisinini, ayniqsa uning shimoliy-sharqiy qismi aholisinini metallardan yasalgan uy-ro‘zg‘or buyumlari, harbiy qurollar bilan ta‘minlashda “Axsikent markazi”i yetakchi mavqegallagan.

“Namangan viloyati tarixi va madaniyat davlat muzeyi” ilmiy xodimi D. Mahmudovanning so‘zlariga ko‘ra o‘rta asrlarda Axsikent temirchilarini mashhur qilgan mahsulot “Axsikent qilichi” bo‘lib, uni tayyorlash texnologiyasi bir necha bosqichdan iborat bo‘lgan. Ya‘ni, *boyitilgan (tozalangan) temir xom-ashyosini yuqori haroratda ertib po‘lat olish, unga maxsus ishlov berib po‘lat sifatini oshirish, po‘lat sifatini buzmaganda holda qilich yasash, qilichni tashqi ta’sirga bardoshli qilish ishlovi* va hokazo texnologik jarayonlardan iborat edi.

Arxeologik izlanishlarda Axsikentning shahriston hududidan X-XII asrlarga oid temir va mis eritadigan va toblaydigan shunday o‘choqlar topilganligi fikrimizni tasdiqlaydi [4;129-b]. Demak bu davrda Axsikent metallurg-temirchi ustalari yuqori sifatli po‘lat (fo‘lad) olish texnologiyasini o‘zlashtirgan edilar. Axsikentda bunday po‘lat aftidan katta hajmda tayyorlangan.

Arxeologik izlanishlarda sifatli po‘lat sopol qoliplarda ya‘ni, 1600-1700 gradus issiqlikka bardoshli tigellarda olinganligi aniqlangan [5;18-19-b]. O‘rta asrlarda bunday yuqori haroratda foydalaniladigan qoliplar yasash katta mahoratni, mahalliy minerallar tarkibini puxta o‘rganishni talab etgan. Sopol tigel qoliplar xom-ashyosining kimyoviy tahlili, qoliplar Axsikentni o‘zida yasalganligi, ya‘ni bu yerga yaqin Novkat konlaridan keltirilganligini tasdiqlaydi. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra Axsikent ustalari ushbu yuqori issiqlikka bardoshli tigel qoliplar evaziga o‘z davrining eng yuqori sifatli po‘latini olishga muvofiq bo‘lganlar. Buni bu soha tarixini o‘rgangan tadqiqotchilar ham qayd etganlar [6;95-b]. Yuqori haroratga esa maxsus yoqilg‘i bilan erishish mumkin bo‘lgan. Mahalliy metallurg-ustalar Ohangaron, Qarag‘anda ko‘miri, ayniqsa mahalliy pista (archa) ko‘mirdan keng foydalanganlari aniqlangan. Tangritog‘ tizmalarida o‘sadigan tog‘ archa g‘o‘lalarini olib kelib, maxsus qo‘ralarda yoqilgan. G‘o‘lalar cho‘g‘ holatiga kelganda, qo‘ra og‘zi somonli loy bilan suvalib 10–15 kun davomida saqlangan. Buning natijasida archa cho‘g‘i yuqori harorat beruvchi ko‘mir bo‘laklariga aylangan. Vodiylar temirchilarini ta‘kidlashicha, bunday yoqilg‘i turini tayyorlashda tog‘ qirg‘izlari ham katta mahoratga erishib, pista ko‘mir bilan asosan ular ustalarni ta‘minlaganlar.

Markaziy Osiyo po‘lat navlarini tadqiq etgan rus tadqiqotchisi P.P. Anosov Axsikent metall ustaxonalarida **tobon, qoratobon, xuroson, qoraxuroson** kabi oliy navli po‘latlar

olinganligini ta’kidlaydi. Bunday po‘lat qurol o‘ta egiluvchan, mustahkam bo‘lgan. CHunonchi, bunday po‘lat navlari 2001 yil Axsikentdagi izlanishlarda topilgan. Po‘lat navlari ustalarni ta’kidlashicha po‘latni ishlovdan keyingi sirtidagi jilosi (metall yarqiroq aksi) ya’ni “nashqi”ga ko‘ra farqlangan. Mohir hunarmandlar bunday po‘lat navlari xususiyatlarini yaxshi bilganlar va po‘lat navini yasaladigan qurol turini xususiyatini xisobga olgan holda tanlaganlar.

Hunarmandchilikda toza po‘lat olingach, undan tig‘li qurollar tayyorlash ham alohida mahoratni talab etgan. SHunki bunday metall tarkibi qattiq lekin mo‘rt bo‘lib, metallni sug‘orish va toblash jarayonini miyorida o‘tkazishni talab etgan. Axsikent ustalari bu sohada ham boy tajriba to‘plaganlar. Axsikentlik ustalar qilich, pichoqlar va ro‘zg‘or buyumlarini tayyorlash texnologiyasini yuqori darajada o‘zlashtirgan ediki, po‘latga turli boshqa unsur-metallarni qo‘shish yo‘li bilan pishiq, egiluvchan, sinmaydigan qurollar tayyorlanganlar.

Markaziy Osiyo hududidan hozircha shu davrga oid yuqori sifatli po‘lat olish izlari faqat Axsikentdan topilganligi uchun bu davrda butun musulmon olamiga mashhur bo‘lgan qilich va hanjarlar aynan Axsikentda yasalgan deb aytish mumkin. Boshqa tomondan bu fikrni ayrim mahalliy hunarmandchilik an‘analari usullariga tayanib ham bildirish mumkin. CHunonchi, vodiydagi CHust, SHahrixon, Qorasuv pichoqchilik maktablarida pichoq tig‘i tayyor bo‘lgach, uni zanglamasligi uchun maxsus tog‘ mineralidan tayyorlangan suyuqlikda metall sirtini qoraytirish “zoklash” usuli qo‘llaniladi. Ma’lumki, sirti qoraytirilgan po‘lat zanglamagan. Axsikent ustalarining ushbu usuli asrlar davomida CHust, SHahrixon, Qorasuv ustalari tomonidan davom ettrib kelingan. Jumladan, L.M Sverchkov va O. A. Papaxristularning fikriga ko‘ra, ushbu usul vodiyliliklarga qadimiy Axsikent temirchilaridan o‘tgan [7;47-b]. SHu o‘rinda ta’kidlash kerakki, Axsikentliklarning oliy nav po‘lat olish usuli XIII asr boshlarida tanazzulga yuz tutdi.

Ta’kidlash kerakki, Axsikentning yuqori sifatli po‘latdan tayyorlangan qurollari, ro‘zg‘or buyumlariga nafaqat ichki, balki tashqi savdoda ham talab yuqori bo‘lgan. Jumladan, X asr arab sayyohi Al-Muqaddasiyni yozishicha: “Musulmon mamlakatlarida O‘rta Osiyoning hamma buyumlari ichida eng mashhurlari Zarafshonning ipak va paxta tolali ip to‘qimalari hamda Farg‘onaning metallardan yasalgan qurollari”dir. Boshqa bir X asr arab sayyohi Ibn Havqal: “Farg‘onada temirdan ishlangan g‘oyat bezakdor va yuqori sifatli qurollar to Bog‘dod va Iroqgacha olib borib sotiladi va u joylarda bu qurol “Farg‘ona moli”, chunonchi, “Farg‘ona qilichi” deb ataydilar” deb buni yana bir bor e’tirof etgan.

Farg‘ona vodiysida metallardan buyum tayyorlash hunarmandchilik tarmoqlari o‘rta asrning keyingi davri, xususan temuriylar davrida ham taraqqiy etib borganligini tadqiqotchilar ta’kidlaydilar[8;231-233-b]. Xususan, vodiya konchilik ishlari temuriylar davrida rivoj topgan. Masalan, Z.M. Bobur Farg‘ona tog‘larida temir va firuza qazib olinganligini ta’kidlagan. Bunday qimmatli xom-ashyo zahirasi shubhasiz hunarmandchilik rivojiga yaxshi ta’sir etgan. Jumladan, manbalarda Farg‘ona vodiysida tig‘li buyumlar tayyorlash temuriylar davrida ham davom etganligini ko‘rsatadi [9;6-b].

Temirchilikdan tashqari o‘rta asrlarda Farg‘ona vodiysida metallsozlikni qator sohalari, xususan degrezlik, zargarlik, misgarlik, ayniqsa kandakorlik kabi tarmoqlari ham rivoj topgan edi. E’tiborli jihati mazkur tarmoqlar vodiya o‘rta asrlarni ilk davrida taraqqiy etib mo‘g‘ullar bosqinidan keyin tanazzulga yuz tutadi. Lekin biroz vaqt o‘tib tarmoq yana qaytadan tiklana boshlagan. Jumladan, XIV asrdan vodiya mis qazib olishni jonlanishi bunga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Darhaqiqat, Z.M. Boburning “Boburnoma” asarida bu mavzuga oid bergan ma’lumotlariga tayanadigan bo‘lsak XV-XVI asrlarga kelib Farg‘ona vodiysida ma’dan ishi qayta o‘sgan edi. Lekin shunga qaramay mavjud ma’lumotlarni tahlil qilgan holda aytilish mumkinki, Farg‘ona vodiysi o‘zining o‘rta asrlarning IX-XII asrlarida metallsozlik borasidagi avvalgi erishgan mavqeyini to‘la tiklay olmagan. Hattoki yuqori sifatli ayrim qurollar endi Farg‘ona vodiysiga chetdan keltirila boshlangan. Biroq shunga qaramay mahalliy ustahunarmandlarning ko‘p asrlik an‘analari butunlay izzsiz ketmagan, balki Farg‘ona vodiysining kattayu-kichik metallsozlik markazlarida o‘ziga xos shakl va mazmunda yashashda davom etgan.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, o‘rta asrlarda Farg‘ona vodiysida metallsozlik hunarmandchiligi taraqqiy etgan edi. Mintaqadagi eng yirik hunarmandchilik markazi bo‘lib Axsikent shahri shakllangan. Mazkur hunarmandchilik markazidagi ayrim usullar bugunga qadar ham vodiya hunarmandchiligida saqlangan. Bugungi kundagi dolzarb masala Farg‘ona vodiysi temirchi ustalarining o‘tmishdagi eng yaxshi hunarmandchilik an‘analari tarixini o‘rganish, yosh avlodni uni negizida tarbiyalash va milliy qadriyatlarimizni zamon talablari asosida qayta jonlantirishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR: (REFERENCES)

1. Булатова В.А. Бронзовый штамп из жилого комплекса. VII-VIII вв. (городище Кува в Ферганской области). сб. «История материальной культуры Узбекистана». Вып. 4. –Т.: 1963.
2. Массон М.Е. К истории черной металлургии Узбекистана. – Ташкент: 1947.
3. Hudud ul-olam. –Т.: O‘zbekiston. 2008.; Абулкасым Ибн Хаукаль Книга путей и стран – пер. Е. К. Бетгера) / Текст воспроизведен по изданию: Труды Среднеазиатского Государственного университета. Археология Средней Азии. IV. – Ташкент, 1957.
4. Анарбаев А. Ахсикент – столица Древней Ферганы. – Ташкент: Tafakkur, 2013.
5. Anorboev A., Islomov U., Matboboev B. O‘zbekiston tarixida qadimgi Farg‘ona. – Т.: Fan, 2001.
6. Папахристу О.А. Черная металлургия Северной Ферганы.(По материалам археологический исследования города Ахсикента IX-XIII в.) канд. дисс. – М. 1985.
7. Сверчков Л. М., Папахристу О. А. Традиция мастеров-ножещиков Средней Азии. // ОНУ. – 1990. – №7.
8. Usmonov B. Farg‘ona vodiysi Amir Temur va temuriylar davrida. – F.: “Farg‘ona”, 2019.
9. Z.M. Bobur. Boburnoma./ Nashrga tayyorlovchi P. SHamsiev. – Т.: Yulduzcha, 1989.